

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va
atrof-muhitni muhofaza qilish davlat
qo‘mitasi raisi birinchi o‘rinbosari

 U. Ya. Xalilov

2022-yil “4” oktabr

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan “Yosh mutaxassislarni tanlash”

DASTURI

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda – Davlat ekologiya qo‘mitasi) tomonidan “Yosh mutaxassislarni tanlash” namunaviy dasturi (keyingi o‘rinlarda – Dastur) Oliy ta’lim muassasalarining (keyingi o‘rinlarda – OTM) bitiruvchi kursida o‘qiyotgan qobiliyatli yoshlarni saralab olish, ularning stajirovkasini tashkil etish va keyinchalik zaxiraga kiritish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

Dastur maqsadi – davlat xizmatiga eng munosib kadrlarni tanlash va istiqbolli kadrlarni tayyorlashni tizimli yo‘lga qo‘yish hamda OTM bitiruvchilarini davlat xizmatiga jalb qilish samaradorligini oshirishdan iborat.

Dastur vazifalari:

oliy ta’lim muassasalari hamda davlat xizmati o‘rtasida integratsiyani yo‘lga qo‘yish;

eng salohiyatli va bilimli bitiruvchilarni seleksiya qilish;

nomzodlarni davlat ekologiya qo‘mitasida stajirovka o‘tash uchun yo‘naltirish hamda “ustoz-shogird an‘anasi” asosida tajribali ustoz-mentorlarga biriktirish;

stajirovkani muvaffaqiyatli yakunlagan bitiruvchilarni tanlov (suhbat) asosida davlat xizmatiga ishga qabul qilish.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Dasturda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

Oliy ta’lim muassasasi – bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta’minlovchi davlat ta’lim muassasasi;

bitiruvchi – OTM kunduzgi shaklining bakalavriat bosqichi bitiruv kurs talabalari;

Davlat organlarida stajirovka o‘tash – yosh mutaxassislarni davlat xizmatiga tayyorlash, kasbiy faoliyat ma’suliyatini his etish va tajribali mutaxassislarning ish faoliyatini o‘rganish orqali OTMda olgan nazariy bilimlarini amaliy mustahkamlash jarayoni.

malaka talablari – ma’lum bir davlat fuqarolik lavozimiga stajyor bo‘lish uchun nomzodlarga nisbatan Davlat ekologiya qo‘mitasi tomonidan belgilanadigan tegishli ma’lumot, shuningdek bilim va kasbiy kompetensiyasiga qo‘yilgan talablar;

stajirovka rahbari – Davlat ekologiya qo‘mitasidagi stajirovka jarayonini muvofiqlashtirish mas’uliyati yuklangan rahbar xodimi.

ustoz-mentor – stajirovka o‘tayotgan bitiruvchilarga davlat xizmatidagi faoliyatida “ustoz-shogird” an’anasi asosida zarur tashkiliy ko‘rsatmalar beruvchi, ularni texnik xavfsizlik qoidalari bilan tanishtiruvchi, amaliy ko‘nikma va malakalarni o‘rgatuvchi, stajirovka davrida talaba egallagan ko‘nikmalarni baholash yuklangan tajribali davlat fuqarolik xizmatchisi.

shaxsiy rivojlanish rejasi – bitiruvchining davlat organlarida stajirovkasi davomida o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar muddatlar kesimida aks ettiriladigan hujjat.

kadrlar zaxirasi – Davlat ekologiya qo‘mitasidagi lavozimlarni salohiyatli, yosh kadrlar bilan to‘ldirilishini ta‘minlaydigan, yuqori malakali mutaxassislar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan ma‘lumotlar bazasi.

2-bob. Tanlov o‘tkazish tartibi

2. “Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi” 1-ilovadagi dasturni amalga oshirish sxemasi bo‘yicha tegishli bosqichlarda va belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

3. Davlat ekologiya qo‘mitasining rasmiy sahifalarida “Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi” bo‘yicha stajirovka tanlovi haqida e‘lon beriladi va targ‘ibot tashviqot ishlari amalga oshiriladi.

4. Nomzodlardan stajirovka tanlovida ishtirok etish uchun arizalar onlayn shaklda (*telegram bot orqali*) qabul qilinadi.

5. Texnik talablarga muvofiq ariza egalariga saralash bosqichida ishtirok etishga yo‘llanma yuboriladi.

6. Nomzodlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, davlat fuqarolik xizmati va korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi qonunchilik, davlat tili, axborot texnologiyalari, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishlari bo‘yicha bilim darajasini aniqlash uchun tegishli davlat organlari tomonidan tashkil etiladigan maxsus test sinovidan o‘tadilar.

7. Test sinovlari bazasi Davlat ekologiya qo‘mitasi buyurtmasiga binoan ushbu tashkilot mablag‘lari hisobidan Atrof-muhitni muhofaza qilish ilmiy - tadqiqot instituti va Atrof muhitni muhofaza qilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi tomonidan ishlab chiqiladi.

8. Test bosqichi Davlat ekologiya qo‘mitasi Davlat ekologiya qo‘mitasi bilan hamkorlik qilayotgan OTMlarning maxsus kompyuter xonalarida o‘tkaziladi. Tanlov jarayonlari davlat ekologiya qo‘mitasi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

9. Test bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar (*71 foizdan yuqori*) Davlat ekologiya qo‘mitasi tomonidan tuzilgan maxsus komissiya tomonidan suhbatdan o‘tkaziladi.

10. Nomzodlar ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq jadval bo‘yicha baholanadi. Baholash natijalariga ko‘ra, sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlarni stajirovkaga qabul qilish haqida davlat ekologiya qo‘mitasi raisining buyrug‘i chiqariladi.

11. Stajirovka jarayonini namunali yakunlagan yosh mutaxassislar davlat ekologiya qo'mitasi uning xududiy boshqarmalari va tizim tashkilotlarining kadrlar zaxirasiga kiritiladi.

3-bob. Stajirovkani tashkil etish qoidalari

12. Stajirovka tanlovlardan muvaffaqiyatli o'tgan bitiruvchi bilan 3-ilovaga muvofiq tuziladigan stajirovka shartnomasi asosida tashkil qilinadi.

13. Mazur shartnomada stajirovkani tashkil etish va o'tkazish bo'yicha shartnoma predmeti, taraflarning huquq va majburiyatlari, qabul qiluvchi tashkilotning ish faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqqan holda stajirovkani o'tash tartibi, shartnomaning amal qilish muddati va bekor qilish asoslari, shuningdek, taraflarning javobgarligiga oid normalar nazarda tutiladi.

14. Stajirovka uch oydan kam bo'lmagan hamda bir yildan ko'p bo'lmagan muddatda amalga oshirilishi lozim.

15. **Yoshlar ishlari agentligi** Yosh mutaxassislarni tanlash dasturini amalga oshirish jarayonlarini muvofiqlashtiradi. Stajirovkani tashkil etishning zarur tashkiliy-huquqiy choralarini ko'radi. Xususan:

davlat organlariga namunaviy dastur va ilova hujjatlarni taqdim etadi;

davlat organlari namunaviy dastur asosida o'z dasturlarini ishlab chiqishi va tanlov e'lon qilishini nazorat qiladi;

tanlov jarayonlarini belgilangan mezonlar asosida shaffof va adolatli o'tishini ta'minlaydi;

stajirovkaga jalb qilingan talabalar ma'lumotlarini umumlashtiradi;

stajirovka yakunlari bo'yicha hisobot (taqdimot) jarayonlarida ishtirok etadi;

dasturni amalga oshirish sxemasi bo'yicha barcha bosqichlardagi chora-tadbirlarni muvofiqlashtiradi;

stajirovka o'tashda yoshlar huquq va manfaatlarini ta'minlash yuzasidan monitoringni amalga oshiradi;

stajirovka yakunlari bo'yicha davlat organlarining hisobot va takliflarini umumlashtiradi.

16. **Davlat ekologiya qo'mitasi** stajirovkani tashkil etishning zarur tashkiliy-huquqiy choralarini ko'radi. Xususan:

sinov jarayonlarini adolatli va shaffof tarzda tashkil etadi;

malakali va tajribali mutaxassislar orasidan stajyor bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lgan stajirovka rahbari va ustoz-mentorni tayinlaydi;

bitiruvchilarni stajirovka davrida o'z xodimi sifatida faoliyat olib borishi uchun tashkilot rahbarining buyrug'ini chiqaradi;

stajirovka dasturiga muvofiq bitiruvchilarga joriy qilinadigan shart-sharoitlar (shaxsiy himoya, moddiy-texnika vositalari boshqalar)ni yaratadi;

stajyorlarga mavjud adabiyotlar, texnik va boshqa hujjatlardan foydalanish imkoniyatlarini beradi;

tashkilotning ichki mehnat intizomini buzgan stajyor bilan tuzilgan stajirovka shartnomasini belgilangan tartibda bekor qiladi;

bitiruvchi stajirovkani o'tash davrida Davlat ekologiya qo'mitasida baxtsiz hodisaga uchragan holatlar bo'yicha javobgarlik masalalarini qonunchilik hujjatlarini asosida ko'rib chiqadi;

16. Davlat fuqarolik xizmatidagi stajirovka rahbari Davlat ekologiya qo'mitasida stajirovka o'tayotgan barcha bitiruvchilarga rahbarlik qiladi. Uning vazifalari:

davlat fuqarolik xizmati tashkilotning tarkibiy tuzilmalari va hududiy bo'limlari bo'yicha talabalarni taqsimlaydi, ob'ektning tuzilishi, faoliyat yo'nalishlari va o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi;

stajyor bilan stajirovka o'tash shartnomasini imzolaydi;

stajyorlar bilan tashkilot rahbarlari va yetakchi xodimlarning uchrashuvini tashkil etadi.

17. Ustoz-mentor sifatida davlat xizmatida kamida uch yillik tajribaga ega, mehnat jamoasida obro'-e'tiborli davlat xizmatchisi "ustoz-shogird" an'anasi asosida ko'pi bilan ikki nafar bitiruvchiga birlashtirilishi mumkin. Uning vazifalari:

stajyorlarga ish faoliyati va texnika xavfsizligi bo'yicha tushuntirish, shuningdek qabul qiluvchi tashkilotning ichki tartib qoidalari va ish rejimining xususiyatlari bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatadi;

stajirovka dasturiga taalluqli materiallardan foydalanish tartib-qoidalarini o'rgatadi;

stajyor ish kunining belgilangan davomiyligiga va stajerning shaxsiy ish rejasiga rioya etilishini nazorat qiladi;

18. Stajyor davlat ekologiya qo'mitasida stajirovka o'tashda:

stajirovka bo'yicha uslubiy va ko'rsatma materiallar bilan tanishishi;

stajirovka shartnomasi bilan yuklatilgan huquq va majburiyatlarni amalga oshirish;

stajyorning shaxsiy ish-rejasida nazarda tutilgan barcha topshiriqlarni belgilangan muddatlarda, to'liq hajmda va sifatli bajarishi;

stajirovka o'tash to'g'risidagi hisobotni taqdim qilishi;

faoliyatida foydalanishi mumkin bo'lgan materiallar to'plamini shakllantirishi;

qabul qiluvchi tashkilotning ichki mehnat tartib qoidalari va xodimlari faoliyatining tartibini belgilovchi hujjatlarga rioya qilishi shart.

4-bob. Stajirovkani o'tash tartibi

18. Stajirovka uch bosqichga bo'linadi:

tayyorlov;

asosiy;

hisobotlarni topshirish va baholash.

19. Stajirovka tayyorlov bosqichining birinchi kunida davlat fuqarolik xizmatidagi stajirovka rahbari tomonidan yig'ilish o'tkaziladi. Yig'ilishda talabalar stajirovkani o'tash dasturi bilan tanishadilar, uning maqsad va vazifalariga taalluqli ko'rsatmalar, stajirovkani o'tash va 4-ilovadagi hisobot shaklini to'ldirish tartibi haqida xabardor qilinadilar.

20. Stajirovka o'tashning boshida talabalar qabul qiluvchi tashkilotning tuzilishi, faoliyat yo'nalishlari, o'ziga xosligi bilan tanishadilar hamda stajirovka rahbari va birlashtirilgan ustoz-mentor bilan birgalikda stajirovkani o'tash dasturini bajarish bo'yicha 5-ilovaga muvofiq, shaxsiy ish reja jadvalini tuzadilar.

20. Stajirovkaning asosiy bosqichida bitiruvchi bevosita stajirovkani o'tash dasturini bajarish bo'yicha Shaxsiy ish rejada ko'rsatib o'tilgan ishlarni bajaradi.

21. Stajirovka yakunlari bo'yicha hisobotni topshirish so'nggi bosqich hisoblanadi. Belgilangan tartibdagi hisobot-taqdimot stajirovka rahbari, ustoz-mentor, davlat ekologiya qo'mitasi vakili va Yoshlar ishlari agentligi vakili tomonidan baholanib tasdiqlanadi.

22. Stajirovkani muvaffaqiyatli yakunlagan bitiruvchilar davlat ekologiya qo'mitasi hamda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan 5-ilova asosida tasdiqlangan sertifikat bilan taqdirlanadi. Mazkur sertifikat asosida bitiruvchilarni davlat xizmatiga ishga qabul qilishda imtiyoz nazarda tutiladi.

6-bob. Davlat xizmatiga ishga qabul qilish

23. Davlat ekologiya qo'mitasi tomonidan oltinchi darajali davlat xizmatchilari (mutaxassis) vakant shtat birliklarining o'n foizdan kam bo'lmagan miqdorida yosh mutaxassislar uchun lavozimlar ro'yxatini shakllantiradi.

24. Ro'yxatdagi lavozimlar uchun bitiruvchilarga alohida malaka talablari ishlab chiqiladi.

25. Dastur asosida stajirovkani muvaffaqiyatli tamomlagan, sertifikatga ega bitiruvchilar davlat ekologiya qo'mitasidagi maxsus komissiya tomonidan o'tkaziladigan suhbat asosida ishga qabul qilinadi.

26. Dastur bo'yicha stajirovka o'tayotgan bitiruvchilarga davlat ekologiya qo'mitasining Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining bir barobaridan uch barobarigacha miqdorda stipendiyalar beriladi.

7-bob. Yakuniy qoida

27. Mazkur Dastur bo'yicha yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

**Yosh mutaxassislarni tanlash dasturini amalga oshirish
SXEMASI**

Bosqichlar	Sub'ektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Davlat ekologiya qo'mitasi	Davlat organlari shtat birliklarining o'n foizdan kam bo'lmagan miqdorda stajyorlarni jalb qilish uchun zarur shart-sharoitlar (moddiy texnika)ni yaratish	Sentyabr
2-bosqich	Davlat ekologiya qo'mitasi	Dastur doirasida har bir Davlat ekologiya qo'mitasi integratsiya qiladigan OTMlar ro'yxatini shakllantirish hamda ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish	Sentyabr
3-bosqich	Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, davlat fuqarolik xizmati va korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi qonunchilik, davlat tili va AKT bo'yicha test savollari bazasini yaratish	Sentyabr oyining 2-yarmi
4-bosqich	Davlat ekologiya qo'mitasi Yoshlar ishlari agentligi	Rasmiy veb-saytlar, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda "Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi" bo'yicha tanlov e'lon qilish hamda OTMlarda targ'ibotini tashkil qilish	Oktyabr oyining 1-yarmi
5-bosqich	Davlat ekologiya qo'mitasi	"Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi" bo'yicha e'lon qilingan tanlov bo'yicha kelib tushgan hujjatlarni qabul qilish	Oktyabr oyining 2-yarmi
6-bosqich	Davlat ekologiya qo'mitasi Yoshlar ishlari agentligi, Oliy ta'lim muassasalari	Nomzodlarning bilim darajasini aniqlash uchun test sinovidan o'tkazish	Noyabr oyining 1-yarmi
7-bosqich	Davlat ekologiya qo'mitasi Yoshlar ishlari agentligi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi	Test bosqichidan muvaffaqiyatli (71 foizdan yuqori) o'tgan bitiruvchilarni Davlat ekologiya qo'mitasida tashkil etilgan maxsus komissiya tomonidan suhbatdan o'tkazish	Noyabr oyining 2-yarmi
8-bosqich	Davlat ekologiya qo'mitasi oliy ta'lim muassasalari	Suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlarni stajirovkaga jalb etish, ustoz-mentor birlashtirish, Stajirovka o'tash shartnomasi va Shaxsiy rivojlanish rejasini imzolash	Dekabr

9-bosqich	Davlat ekologiya qo'mitasi, oliy ta'lim muassasalari	Ustoz-mentor tomonidan stajyor faoliyatini kuzatib borish asosida uning bilimi, ko'nikmalari va amaliy tajribasi oshishiga ko'maklashish	Dekabr-iyul
10-bosqich	Davlat ekologiya qo'mitasi, Yoshlar ishlari agentligi	Stajirovka faoliyati yakunlari bo'yicha stajyor taqdimotini baholash va muvaffaqiyatli tamomlagan stajyorlarga sertifikat berish	Iyul
11-bosqich	Davlat ekologiya qo'mitasi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi	Sertifikatga ega bitiruvchilar orasidan tanlov (subbat) asosida ishga qabul qilish	Avqust
12-bosqich	Davlat ekologiya qo'mitasi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, Yoshlar ishlari agentligi	Stajirovka yakunlari va davlat xizmatiga qabul natijalari bo'yicha "Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi"ni takomillashtirish yuzasidan xulosa va takliflarni shakllantirish	Avqust